

## IJTIMOIIY SOHADA QATAG'ON QILINGAN AYOLLAR

**Shodmonova Durdona Anvarjon qizi**

*Qarshi Davlat Universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

**Mahfuza Mamatova**

*PhD, Ilmiy rahbar*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** qatag'on, ijtimoiy soha, Germaniya, "Katta qirg'in", "Ko'mak", "Ozod Turkiston", xalq dushmani, "Uchlik sudi", "Yorqin turmush", aksilinqilobiy.

### Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy sohada qatag'on qilingan ayollarning hayoti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ularning ko'pchiligi chet elda faoliyat yuritgan bo'lib, nohaq qatag'on qurboni bo'lgan o'zbek ayollaridir.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Tariximizdan ma'lumki, 1917-yil oktyabrida bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgunlariga qadar O'rta Osiyo shu jumladan, Turkistonda qanday ijtimoiy silsilalar sodir bo'lmasin, birorta ham ayol siyosiy ayb bilan qamoqqa olingan va uning ayollik or-nomusi, ijtimoiy-siyosiy haq-huquqlari toptalgan emas. Sovetlar hukmronligi davrida ayollarning huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirish uchun kurashilgan bo'lsa-da, bu ularning siyosiy qatag'on qurboni bo'lishdan saqlab qololmadi.

O'zbek ayollarining siyosiy ayb bilan qamoqqa olinishi tarixga "Katta qirg'in" deb kirgan va u 1937-1938-yillarda boshlangan. Natijada "Katta qirg'in" davrida qisqa muddatga o'zbek ayollarining eng ilg'or qismi mahv etildi [4:182]. "Katta qirg'in" davrida sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari hududidan 25 mingga yaqin xotin-qiz qatag'onga uchragan. Qatag'on qilingan ayollar mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan shaxslar bo'lmay, balki turli soha vakillari edilar. Ularning aksariyati xorijda tahsil olgan yoki davlat va jamoat arboblarning turmush o'rtoqlar bo'lgan ijtimoiy soha vakillari hisoblanmish muallim va tibbiyot xodimlari edi. Ular orasida Germaniyada tahsil olib qaytgan Gulsum Rahimova-Ashrafiy Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova hamda turmush o'rtoqlarining aksilinqilobiy faoliyati to'g'risida tegishli idoralarga xabar bermaganlikda, shuningdek, ularning jinoiy ishlariga sherik bo'lganlikda ayblangan Zaynab Hoshimova va Ruqiya Xo'jayeva (Rahimova) ham bor edi [4:182].

Shunday qatag'on etilgan davlat va jamoat arboblarning rafiqalari orasida O'zbekiston Fanlar qo'mitasining birinchi raisi va hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot Institutining sobiq direktori Otajon Hoshimovning umr yo'ldoshi Zaynab Hoshimova (1-rasm) ham bor edi. Zaynab Hoshimova 1909-yili Namangan shahrida tavallud topgan. Uning otasi 1913-yilda, ya'ni Zaynab Hoshimova 4-5 yoshligidayoq vafot etadi. U otadan juda erta ajralib, onasi Latifa aya bag'rida tarbiyalana boshlaydi. Zaynab Hoshimova 9 yoshga kirgach, yangi usuli maktabiga o'qishga boradi. Sovetlar hukmronligi davrida Toshkentdagi Tatar maorif Institutiga o'qishga kiradi va shu yerda to'rt yilcha o'qiydi [1:207].



**1-rasm. Zaynab Hoshimova**

Zaynab Hoshimovaning turmush o'rtog'i Otajon Hoshimov Samarqandda yangi ochilgan Pedakademiya siyosiy iqtisod va falsafadan dars berib yurgan kezarida, u ham Pedakademiya o'qish bilan birga yoshlarga bilim berish va tarbiya ishlarida faol qatnashadi. Keyinchalik, Zaynab Hoshimova terminologiya qo'mitasi qoshida ochilgan stenografistlar kursida o'qituvchilik qiladi va yangi lotin alifbosi asosidagi stenografiya bo'yicha kadrlar tayyorlashda faol qatnashadi.

1937-yilda 2-avgustda turmush o'rtog'i Otajon Hoshimov bexosdan O'zbekistonda aksilinqilobiy millatchilik tashkilotining faol a'zosi sifatida qamoqqa olinadi [1:208]. Oradan bir oy o'tgach, Zaynab Hoshimova ham erining millatchilik tashkiloti a'zosi ekanligini bila turib yashirib kelganlikda va shu yo'l bilan aksilinqilobiy faoliyatiga ko'maklashganlikda ayblanib qamaladi. Hech asossiz ravishda 17 oy qamoqxonada tergovlar azobini boshdan kechiradi [1:207;208].

Uyi va mol-mulkining tortib olinganligini ko'rgan Zaynab Hoshimova uzoq yillar turli tanish-bilishlarining uylarida sarson-sargardon bo'lib qiyin ahvolda, doimo kuzatuv ostida yashaydi. U hatto o'z kasbi bo'lgan o'qituvchilikka ham joylasha olmaydi. Faqat 1939-yil oktyabr oyidan so'nggina Toshkent shahridan uzoq bo'lgan Kalinin qishloq tumanidagi Dmitrov nomli bir maktabda rus tili o'qituvchisi bo'lib ishlay boshlaydi. 10 oydan so'ng xalq dushmani Otajon Hoshimovning xotini, degan ayb bilan u yerdan ham ishdan bo'shatishdi. Oxiri u 1942-yilda o'z kasbini o'zgartirib, Toshkent mexanika zavodida ishlashga majbur bo'ladi [1:210]. Lekin uning orqasidan bo'lgan ta'qib va tazyiqlar also to'xtamadi. Natijada, u Toshkentdan uzoq joyga Qashqadaryo viloyatiga ketib, Kitob tumanidagi paxta zavodining oshxonasida ishlaydi va oradan ancha vaqt o'tgach yana Toshkentga qaytadi.

Zaynab Hoshimova ushbu ko'p yillik qiynoq va quvg'inlar, tazyiq va ta'qiblar oqibatida sog'lig'ini yo'qotib, ko'p vaqtini kasalxonalarda o'tkazadi.

20-yillarning boshlarida Turkiston va Buxoro jumhuriyatlari rahbarlari, shuningdek "Ko'mak" uyushmasi yordamida Germaniyaga o'qishga yuborilgan 70 ga yaqin o'zbek yoshlari orasida boshqa millat vakillari, jumladan, bir necha qozoq, tojik, tatar yigit va qizlari ham bor edi. Shulardan biri tatar qizlari opa-singil Gulsum Rahimova-Ashrafiy (2-rasm) va Ruqiya Xo'jayevalar (3-rasm) ham bor edi. Gulsum Rahimova-Ashrafiy 1902-yil Qozog'istonning Oqmulla viloyati O'tbosar shahrida tavallud topib, to 1913-yilga qadar o'sha yerda o'qigan. Gulsum va Ruqiya Rahimovalarning otasi Qayum bobo Rahimov keyinchalik turmush taqazosi bilan Turkiyaga ko'chib borgan. Kelajakda shifokor bo'lib oilasiga, ham el-yurtga xizmat qilishni orzu qilgan Gulsum Rahimova tibbiy ta'lim yuqori bo'lgan shaharlarga borib o'qish ilinjida yashaydi.

1918-yilda shunday imkoniyat tug'ilib, Germaniyaga o'qishga ketadi. Bunga shu yillarda Rossiya

musulmon harbiy asirlari qatorida Turkiyaga kelgan Olimjon Idrisiyning Gulsum Rahimovaning otasi bilan avvaldan tanish bo'lganligi va Gulsum Rahimovaning o'qish orzusidan xabar topishi sabab bo'ladi [2:122].

Gulsum Rahimovaning Germaniyada tahsil olish yillari boshqalarga nisbatan bir muncha cho'zilgan. Buning sababi shundaki, u Germaniyaga Turkistonlik talabalardek Buxoro Xalq Respublikasi hisobiga kelmagan, shuning uchun ham u bir necha yil mobaynida, aniqrog'i 1922-yili Buxoro Xalq Respublikasi ta'minotiga o'tguniga qadar moddiy jihatdan qiynalgan edi. [1:210], [2:122]



**2-rasm. Gulsum Rahimova-Ashrafiy (1902-1938)**

Gulsum Rahimova Germaniyadagi Drezden qizlar gimnaziyasini muvaffaqiyatli bitirib, katta umidlar bilan O'zbekiston SSR ga qaytadi. So'ngra, u Buxoro va Samarqandga borib, u yerlarda bir muncha vaqt mahalliy o'zbek, tojik, tatar, yoshlari maktablarida nemis va rus tillaridan dars beradi. Lekin ming afsuslar bo'lsinkim, Gulsum Rahimova ham 1937-yil iyul oyida qamoqqa olinadi. Ammo aybnoma esa Gulsum Rahimova qamalgandan so'ng ikki haftacha vaqtdan keyin tuziladi. Unda ayblanuvchining Germaniyada o'qigan vaqtida "Ozod Turkiston" aksilinqilobiy-ayg'oqchilik tashkilotiga a'zo bo'lgan, uning topshirig'i bilan SSSR ga kelib, sovet mamlakatiga qarshi Germaniya foydasiga josuslik materiallarini to'plagan degan ayblar qo'yiladi. Uzoq tergovlardan so'ng, 1938-yil oktyabr oyida oliy jazo-otuvga hukm qilinadi [2:128].



**3-rasm. Ruqiya Xo'jayeva (Rahimova) (1908-1937)**

Ruqiya Xo'jayeva opasi Gulsum Rahimova bilan birgalikda Germaniyaning Drezdendagi qizlar gimnaziyasida o'qishgan. Ular o'z tillarini yo'qotib yubormasliklari uchun yonlarida turkcha muallimlarini ham olib yurishgan [5:95].

[5:95], [2:128].



Gulsum Rahimovaning singlisi Ruqiya Xo'jayeva (Rahimova)ga "xalq dushmani"ning xotini bo'lishidan tashqari, Germaniyada o'qigan yillarida, u yerdagi sovetlarga qarshi Turkiston mustaqilligi uchun kurashuvchi allaqanday millatchilik tashkilotining faol a'zosi bo'lganlikda ayblanib, 1937-yil 16-oktyabrda otuvga hukm qilinadi va 21-oktyabrda otib tashlanadi [2:137].

Mustaqillikka erishganimiz tufayli o'tmishda begunoh qamalgan-qatag'onga uchragan ko'plab ajdodlarimiz qatori marhum Gulsum va Ruqiya Rahimovalar ham oqlanadi.

Umri qamoq, surgun, ruhiy va ma'naviy ta'qiblarda o'tgan o'zbek qizi Maryam Sultonmurodova 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida "Yosh xivaliklar" harakatining fasl ishtirokchisi Mulla Jumaniyoz oilasida tavallud topgan (4-rasm). Otasi Maryamni 1911-yil Urganchdagi besh yillik no'g'oy (tatar) maktabiga beradi. Oilasi To'rtko'lga ko'chib o'tgach, bu yerdagi jadid maktabida ta'limni davom ettiradi. 1919-yildan Toshkentdagi maorif maktabi gimnaziyasida, 1920-1921-yillarda Orenburg tatar pedagogika intitutida o'qiydi. 1922-yil iyul oyida Toshkentga kelib, O'rta Osiyo davlat Universitetining Ishchi fakultetiga hujjat topshiradi. 1922-yilning oktyabr oyida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o'qishga yuborilayotgan talabalar safiga kiritiladi [3:12].



**4-rasm. Maryam Sultonmurodova (1905-1972)**

Maryam Sultonmurodova Germaniyada 1922-yildan 1928- yilgacha faoliyat olib bordi. Bu orada 1923-yildan 1924-yilgacha Berlinda, 1924-yildan 1926-yilgacha Darmshtadt shahrida pedagogika maktabida tahsil oladi, 1926-yildan 1928-yilning may oyigacha, ya'ni SSSR ga qaytib kelgunigacha Berlinda xizmat qiladi [2:137; 3:12].

1927-yil yozgi ta'til vaqtida Xayriniso Majidxonova bilan birga Parij shahrida bo'lishadi. Ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafu Cho'qaylar bilan 2-3 daqiqalik uchrashuvi keyinchalik qatag'on etilishi uchun asosiy bahona bo'lgan edi. 1927-yil kuzidan Maryam Berlin shahrining Vedding tumanidagi professor Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini o'qib bitiradi. 1928-yil SSSR ga qaytishi bilan ta'qiblar boshlanib ketadi. Avvaliga, unga hech qaysi tashkilotdan ish berilmaydi. Germaniyada ta'lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O'zbekiston Sog'liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo'lib ishga kiradi. Maryam Sultonmurodova 1936-yildan ayollarning "Yorqin turmush" jurnaliga adabiy xodim bo'lib ishga kiradi. U o'zbek matbuotida o'zining nemis adabiyotidan qilgan tarjimalari va ayollarning o'tkir ijtimoiy muommolariga bag'ishlangan maqolalari bilan elga tanila boshlaydi. Yosh journalist Davron Madaminga turmushga chiqib, baxtli hayot ostonasida turgan paytda haqiqiy ayanchli kunlar yetib keldi. Afsuski, 1937-yilning sentyabr oyida Maryam Sultonmurodova 1922-28-yillarda Germaniyada o'qigan, "Turkiston" josuslik tashkiloti a'zosi deb O'zSSR JK ning 60 (aksilinqilobiy tashviqot), 67 (aksilinqilobiy tashkilotiga a'zolik) moddalari bilan ayblanib, qamoqqa olinadi [3:12]. Maryam

Sultonmurodova hibsga olingan chog'ida 32 yoshda bo'lgan, ikki farzandi-yetti yoshli o'g'li Po'lat va Anora ismli emizikli qizi bo'lgan. 1938-yil oktyabr oyida bo'lgan "Uchlik" sudida Maryam Sultonmurodova 10 yil muddatga qamoqqa hukm etiladi. Maryam Sultonmurodova 1937-yil sentyabr oyidan 1939-yilgacha avval Toshkent, Qozon va Suzdal qamoqxonalarda, so'ng uzoq Kolimaning qahraton sovuqlari ostidagi "Dalstroy"ga surgun bo'ladi.

Bu yerda 1947-yilgacha ishlab, keyinchalik oqlansa ham oradan ikki yil o'tar o'tmas, yana qamab surgun qilinadi. Keyinchalik, 1954-yilda oqlanib so'nggi surgundan qaytgach, Toshkentga ishga taklif etganlar, ammo u o'z tug'ilib o'sgan Urganch shahridagi Chandir Qiyot qishlog'ida onasi bag'rida yashay boshlaydi. U davrda hayoti juda og'ir bo'lgan: hech kim ish berishmagan. Qatag'on yillarida odamlar shu qadar yurak oldirib qo'yganlarki, unga yordam ko'rsatishga ham ayg'oq ko'zlardan cho'chiganlar. Uning Germaniyada o'qib olgan hujjati ham, surgundalik chog'ida o'qib keltirilgan diplomi ham tergov tashkilotlarida qolib ketgan. Bu yerda esa diploming yo'q, deb ishdan bo'shatishga uringanlar [1:124,125].

Maryam Sultonmurodova umrining oxirigacha tug'ilib o'sgan Urganchdagi Chandir qiyot qishlog'ida o'zi sevgan matbuotchilik sohasidan tamomila uzoq bo'lgan boshqa bir sohada ishlashga majbur bo'lib, orzu-armonlari ushalmay, olamdan o'tib ketdi [3:12; 1:124;125].

Butun umrlari davr zulmi ostida zavolga ketdi. U 1905-yil Toshkentda ma'rifatparvar oilasida dunyoga kelgan [2:115]. Otasi Majidxon qizlarini zamonaviy bilim olishlariga, turli tillarni o'rganishlariga sharoit yaratgan. Shuning uchun ham mutaassib dindorlar qizlarini yuzini ochib, o'qib yurishlarini qoralaganlar. Xayriniso opasi Oyposhsha bilan birga Munavvarqori, Saodat Yenikeva kabi o'z davrining ilg'or ziyolilaridan saboq olganlar.



**5-rasm. Xayriniso Majidxonova (1905-1938)**

Xayriniso Majidxonova Miroboddagi yangi maktabda o'qib yurgan vaqtlarida rus va nemis tillarini o'rganadi. Xayriniso 1922-yilda bir guruh o'zbek yigit va qizlari bilan birga Germaniyaga o'qishga yuboriladi. Otasi Majidxon xorijga o'qishga borgan talabalar orasida qizining ham bo'lishidan cheksiz mamnun bo'lib, bu voqeadan suyungan holda shoir Botuga minnatdorchilik bildirib bunday yozgan: "Ezilgan millatlar, qorong'ulikda qolgan yurtini kelgusida chin bilim bilan yoritmoq uchun bu yil xorijga ketgan talabalar orasida qizim Xayriniso ham bor edi. Bilim uchun uzoq ellarga birinchi o'zbek qizini yuborish sharafi, shukurlar bo'lsinkim, menga nasib bo'lmish. Hozir men shu munosabat bilan har yerdan qutlash xatlari olmoqdaman... yosh shoirimiz Botu o'rtoqqa tashakkurimni bildirib qolaman .."[1:65]

1924-26-yillarda Xayriniso Majidxonova Maryam Sultonmurodova bilan birga Darmshtadt shahridagi o'qituvchilar seminariyasida va ayni paytda tibbiyot kurslarida o'qiydi, nemis tili va adabiyotini o'rganadi. Germaniyada olti yil davomida ta'lim olgan Xayriniso 1928-yilda O'zbekistonga qaytib, to

1937-yil sentabr oyiga qadar kasaba uyushmalari Markaziy Qo'mitasi xodimlari jumhuriyat boshlang'ich va o'rta ta'lim o'qituvchilarining dam olish uyida shifokor bo'lib ishlaydi [2:115; 1:65].

Xayriniso Majidxonova 1937-yil to'satdan qamoqqa olinadi. Unga 1922-28-yillarda germaniyada "Ozod Turkiston" nomli aksilinqilobiy-millatchilik tashkilotining a'zosi bo'lgan, 1928-yilda shu tashkilotning topshiriqlari bilan SSSR ga josus bo'lib kelgan, degan ayblar qo'yilgan. 1938-yil 9-oktyabrda Toshkentda g'ayriqonuniy ravishda Xayriniso Majidxonova aybdor hisoblanib, oliy jazoga otuvga hukm qilinadi [4:186]. Hukm shafqatsizlarcha ijro etiladi. Shunday qilib, endigina 32 bahorni qarshilagan, Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlarida o'qib qaytgan birinchi o'zbek qizlaridan Xayriniso Majidxonova stalincha totalitar tuzumning begunoh qurboni bo'ladi, uning oila a'zolari, otanasi ham og'ir qiyinchiliklarga duchor bo'ladilar [4:186].

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sharipov B. Qor qo'ynida qolgan lolalar. - T.: "Akademiya", 2001.
2. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. - T.: "Akadem- Xizmat", 2006.
3. Irzayev B. Umri qamoq, surgun, ruhiy va ma'naviy taqiblarda o'tgan sahro qizi. // "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining ijtimoiy-siyosiy gazetasi, №9 (1197), 2023 yil 29-mart.
4. Zairova N. Mustabid tuzum yillarida o'zbek ayollarining qatag'on etilishi. // "O'zbekistonda sovet davlatining qatag'on siyosati: kelib chiqishi sabablari va fojiali oqibatlar" ilmiy maqolalar to'plami. - T., 2012.
5. Irzayev B. Turkiston jadidlarining "Ko'mak" tashkiloti-T: "Toshkent islom universiteti" nashriyat-matbaa birlashmasi, 2016.